Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. FANNI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR				
O‘quv modul	3.5 MATEMATIKA DARSINI LOYIHALASH ASOSLARI				
Mavzu	1. MATEMATIKA DARSINI LOYIHALASH				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	- Ta’lim maqsadlarini aniqlash - Metodik yondashuvlarni shakllantirish - O‘qituvchining darsni samarali rejalashtirish va tashkil qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish. - Darsning mazmuni va metodikasini zamonaviy talablarga moslashtirish. - Matematik tushunchalarni oson va tushunarli shaklda tushuntirish usullarini rivojlantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	1. **Salomlashish:** Ishtirokchilar bilan salomlashish va darsga tayyorliklarini tekshirish. 2. **Davomatni aniqlash** 3. **Guruhlarni shakllantirish** 4. **Mashg‘ulotning maqsadini e‘lon qilish:** “Bugungi mashg‘ulotimizda matematika darsini samarali loyihalash usullarini o‘rganamiz. Hamkorlikda ishlashga tayyormisiz?”	5	“Diqqat” o‘yini “Men doimo faolman” “Sherigingni top” Savol-javob	Stikerlar Taqdimot (1-2)	Ishtirokchilarning diqqatini jamlanadi va faolligini oshiriladi. Jamoa ruhi shakllantiriladi Hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi (Jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiriladi). Jarayon haqida tasavvurni shakllanadi. Maqsadlar

	“Bugungi darsning maqsadi - matematika darsini loyihalash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda zamonaviy metodik yondashuvlarni tahlil qilish”. 5. **Dars rejasi bilan tanishtirish:** Tashkiliy qism Motivatsiya Nazariy qism Amaliy mashg‘ulot Tahlil va muhokama Refleksiya Yakunlash va baholash				belgilanadi hamda jarayon rajalashtiriladi.
2. Motivatsiya	1. **Savol-javob:** “Matematika darsini loyihalashning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?” “Siz qanday darslarni o‘quvchilar uchun qiziq deb hisoblaysiz?” 2. **Maqsadga yo‘naltirish:** Loyihalash jarayonining o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni haqida qisqacha tushuntirish.	10	“Mening fikrim” ➔ “Jamoamiz fikri”	Stikerlar. A3, A4 format qog`ozlari Taqdimot (3)	Ishtirokchilar jamoasida avval o‘z fikrlarini bildiradilar, keyin kelishgan holda jamoa fikrini taqdim qiladilar.
3. Nazariy qism	1. **Tushuncha va mazmun:** Matematika darsini loyihalashning asosiy bosqichlari:				

	1. Maqsadni belgilash. 2. Dars rejasini tuzish. 3. Interfaol metodlarni tanlash. 4. Baholash va refleksiya. 2. **Yondashuvlar:** Zamonaviy metodik yondashuvlar (Bloom taksonomiyasi, kompetensiyaviy yondashuv). Hayotiy vazifalar orqali matematikani o‘rgatish.	10	Kichik ma’ruza	Taqdimot (4-7)	Mavzu yuzasidan umumiy ma’lumot beriladi.
4. Amaliy mashg‘ulot	1. Har bir guruhga topshiriq beriladi: Tanlangan mavzuni loyihalashtirish. (Texnologik haritasini ishlab chiqish) 1. **Yordam:** Guruhlar ishlayotganda ularga yo‘naltiruvchi savollar hamda ko‘rsatmalar berish. 2. **Taqdimot:** Har bir guruh o‘z loyihasini 3-5 daqiqada taqdim etadi.	30	Hamkorlikdagi faoliyat	A4, A3 qog`ozlari, stiker, markerlar, darsliklar, taqdimot (8), 1-tarqatma	Guruhlar ma’ruzada belgilangan talablar asosida o‘zlari tanlagan mavzuning texnologik haritasini ishlab chiqadilar. Texnologik haritalarini taqdimot qiladilar, taqdimotlar yuzasidan takliflarini bildiradilar.
5. Tahlil va muhokama	1. **Taqdimotlarni tahlil qilish:** Har bir guruh taqdimotini tahlil qilish va savol-javob qilish.	15	Savol - javob	Taqdimot (9)	Ishtirokchilarda darslarni loyihalashga doir ko‘nikmalari rivojlanadi.

	Ijobiy tomonlarini va yaxshilanishi mumkin bo‘lgan jihatlarini ko‘rsatib o‘tish. 2. **Muhokama:** “Qaysi usul samaraliroq edi va nima uchun?” Ishtirokchilarning fikr va mulohazalarini tinglash.				
6. Refleksiya	1. **Savol-javob:** “Bugungi mashg‘ulot sizga qanday foyda berdi?” “O‘z darslaringizni loyihalashda qanday yangiliklarni qo‘llaysiz?”	5	“BBB”, “Men bugun o‘rgandim”	So‘rovnoma varaqalari, stikerlar, taqdimot (9)	Ishtirokchilar mashg`ulotda o‘zlari uchun olgan yangi ma’lumotlarni tahlil qiladilar.
7. Yakunlash va baholash	1. **Umumiy xulosa:** Matematika darsini loyihalashning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati haqida umumiy fikrlarni aytish. “Sizlar bilan birgalikda ajoyib fikrlarni ishlab chiqdik. Kelgusida darslaringiz yanada samarali bo‘lishiga ishonaman!” 2. **Ishtirokchilarni rag‘batlantirish:** Eng faol guruh yoki qatnashchilarni rag`batlantirish. 3. **O‘z-o‘zini baholash:**	5		Taqdimot (10)	Ishtirokchilar o‘z faolayatlarini baholaydilar. Keyingi mashg`ulotlarda ishlab chiqqan texnologik haritalarni takomillashtirib, dars ishlanmasi, tarqatma materiallarni taqdim qilish vazifasini oladilar.

	Ishtirokchilardan o‘zlarini baholashni so‘rash (“Bugungi faoliyatimni 10 balli tizimda qanday baholayman?”).		“Men baholayman”		

Ilovalar

1- Tarqatma (1-ilova)

Sinf:	**Soatlar miqdori:**	**O‘quvchilar soni:**	**Chorak:**
Mavzu:			
Bosqichlar	**O‘qituvchi faoliyati**	**O‘quvchi faoliyati**	**Metodlar**
1-**TAYYORGARLIK BOSQICHI** **A.** Dastlab o‘rganilgan bilimlarni eslash **B.** Rag‘batlantiruvchi holatlarni (motivatsiyani) hisobga olish **C.** Ta’lim muhitini yaratish			
2- ISHTIROK ETISH BOSQICHI **A.** Amaliy mashg‘ulotga asoslangan ta'lim			

B. O'qituvchi tomonidan yo‘naltiriladigan tadqiqot **C.** To‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma berishga asoslangan ta’lim			
3 - PUXTA O‘ZLASHTIRISH BOSQICHI **A.** Rag‘batlantiruvchi (motivatsiya beruvchi) amaliyot **B.** Qayta ko‘rib chiqish (takrorlash) **C.** Kengaytirilgan (qo‘shimcha) o‘rganish			
Tuzuvchilar:	1. 2. 3. 4.		